


# QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI

Dastlabki ma'lumotlarga ko'rta 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot(xizmat)larining umumiyligi 8093,4 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 102,5 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 8037,8 mlrd.so'mni (102,5 foiz), o'rmon xo'jaligida – 21,7 mlrd.so'mni (101,1 foiz), baliq xo'jaligida – 33,9 mlrd.so'mni (105,1 foiz) tashkil qildi.


## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi

Xususan yuqori o'sish sur'atlari Pskent (106,9 foiz), Parkent (104,5 foiz), va Yuqorichirchiq (104,0 foiz) tumanida kuzatildi. Olmaliq shahar (88,4 foiz), Chirchiq shahar (94,2 foiz), Oqqurg'on (100,6 foiz) tumanlarida esa aksincha past sur'atlari kuzatildi.



## **Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi**

Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Bekobod tumanining ulushi 10,6 foizni tashkil etdi va hududlar boyicha etakchilik qilmoqda,Zangiota 9 foiz Chinoz 7,7 foiz Bo'stonliq 7,2 foiz Qibray 6,8 foiz ko'rsatkich bilan keyingi o'rnlarni egalladi. Eng kam ulush Oxangaron (4,1 foiz), va Quyichirchiq (4,3 foiz) tumanlarida qayd etildi.



### **Qishloq xo'jaligi mahsulotlari**


2018 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2017 yilning mos davriga nisbatan 101,0 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 98,2 foizni, chorvachilik mahsulotlari – 104,9 foizni tashkil qildi.

### **Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 67 foizi – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 25,8 foizi – fermer xo'jaliklariga, 7,2 foizi – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

### Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida



■ Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.


## Dehqonchilik

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 4803,5 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 100,8 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiyligi hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 59,3 fozni tashkil qildi.



**Hosilni yig'ib olish.** 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida 326,3 ming tonna (100,0 foiz) kartoshka ishlab chiqarildi, 1254,4 ming tonna (101,3 foiz) sabzavotlar, 146,4 ming tonna (100,3 foiz) oziqbop poliz, 104,3 ming tonna (103,1 foiz) meva va rezavorlar, 117,8 ming tonna (105,6 foiz) uzum yig'ib olindi. Bundan tashqari 0,5 mln.tonnaga yaqin don ekinlari ishlab chiqarildi..

### Asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi



Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari dehqonchilik mahsulotlarining aksariyat turlarini asosiy ishlab chiqaruvchilari bo'lib qolmoqda, hisobot davrida kartoshka umumiyligi hajmining 70,9 foizi, sabzavotlarning 70,2 foizi, meva va rezavorlarning

56,5 foizi ular tomonidan ishlab chiqarildi. Don ekinlarining esa asosiy qismi fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarildi, ishlab chiqarilgan ushbu mahsulot hajmining 90,9 foizi ular hissasiqa to'q'ri keladi.

## Choryvachilik




2018 yilning yanvar- sentyabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 3087,2 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 105,6 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 38,1 foizni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar- sentyabr  
oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar

tomonidan tirik vaznda 190,2 ming tonna go'sht (2017 yilning yanvar-sentyabriga nisbatan 6,5 foizga ko'p), **727,7** ming tonna sut (7,3 foizga), **961,7** mln.dona tuxum (4,6 foizga), 1,9 ming tonna jun, ishlab chiqarildi.

## **Asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi**




Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 85,7 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 92,4 foizi, tuxumning 48,9 foizi, junning 83,4 foizi, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiqa to'g'ri keladi.

## **Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni**

2018 yilning 1 sentyabr holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 816 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 385,9 ming boshga, qo'y va echkilar – 938,5 ming boshqa, parrandalar – [14619,1](#) ming boshqa etdi.

2017 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 15,2 ming boshga (1,8 foizga) kamaygan , shu jumladan sigirlar – 23,3 ming boshga (6,4 foizga), qo'y va echkilar – 60,3 ming boshga (6,9 foizga), parrandalar – 254,3 ming boshga (1,8 foizga) ko'paydi.

## Xo'jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi



- Ferman xojaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xojaliklari
- Qishloq xojaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2018 yining 1 sentyabr holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni ho'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 8,3 foizi fermer xojaliklari hissasiqa, 87,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi)



xo'jaliklariga, 4,7 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 28,5 foizi fermer xo'jaliklariga, 68,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 3,3 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiylar sonidan 5,7 foizi fermer xo'jaliklariga, 58,6 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 35,7 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi

Qishloq xo'jaligi va ekologiya  
statistikasi bo`limi

- 230-86-68
- 230-86-69